

YASHIL ENERGETIKA LOYIHALARIDA HUQUQIY XATARLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Abdumo‘minova Ruxshona Sherzod qizi

TIQMMI NRU Ekologiya va Huquq fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror rivojlanishning asosiy omili bo‘lgan “yashil” energetika (qayta tiklanuvchi energiya manbalari) loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy xatarlar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida investorlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda uchraydigan asosiy regulyator xatarlar, xususan, qonunchilikdagi beqarorliklar, tarif siyosatining o‘zgarishi, yer ajratish va ekologik me‘yorlar bilan bog‘liq huquqiy muammolar o‘rganib chiqilgan. Shuningdek, maqolada Elektr energiyasini sotib olish shartnomalari (PPA – Power Purchase Agreements) va Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bitimlaridagi noaniqliklar loyiha samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritilgan. Muallif xatarlarni samarali boshqarish mexanizmlari sifatida barqarorlashtirish (stabilizatsiya) shartlarini qo‘llash, xalqaro arbitraj kelishuvlari, siyosiy xatarlarni sug‘urtalash va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish masalalarini ilgari suradi. Tadqiqot yakunida O‘zbekistonda yashil energetika sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada rag‘batlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil energetika, huquqiy xatarlar (risklar), qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM), Davlat-xususiy sheriklik (DXSh), PPA shartnomalari, investitsiya kafolatlari, regulyator xatarlar, xalqaro arbitraj.

Abstract: This article analyzes the legal risks arising in the implementation of "green" energy (renewable energy sources) projects, which are a key factor in sustainable development, and ways to eliminate them. The study examines major regulatory risks in investor-state relations, particularly legal instability, changes in tariff policies, land allocation, and legal issues related to environmental standards. Furthermore, the article highlights how uncertainties in Power Purchase Agreements (PPA) and Public-Private Partnership (PPP) agreements affect project efficiency. The author proposes mechanisms for effective risk management, such as the application of stabilization clauses, international arbitration agreements, political risk insurance, and the harmonization of national legislation with international standards. In conclusion, the study develops scientific and practical proposals for improving the legal framework to further stimulate foreign investment in the green energy sector in Uzbekistan.

Keywords: *Green energy, legal risks, renewable energy sources (RES), Public-Private Partnership (PPP), PPA contracts, investment guarantees, regulatory risks, international arbitration.*

Kirish: So‘nggi o‘n yillikda global iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar insoniyat oldiga energetika sohasini tubdan isloh qilish vazifasini qo‘ydi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish elektr energiyasi ishlab chiqarish, issiq suv ta‘minoti, transport va qishloq xo‘jaligi kabi to‘rtta asosiy sohada an‘anaviy yoqilg‘ilarni almashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu manbalar quyosh, shamol, suv (gidro), geotermal va biomassadan olinadi, bu esa ularni toza va barqaror energiya manbai bo‘lib qolishini ta‘minlaydi. An‘anaviy uglevodorod resurslaridan bosqichma-bosqich voz kechib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (QTEM) o‘tish — bugungi kunda nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy barqarorlikning garovi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyadan chetda qolmay, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2030-yilga qadar elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini sezilarli darajada oshirish bo‘yicha strategik maqsadlar belgilangan. Biroq, yashil energetika loyihalari uzoq muddatli investitsiya talab qiluvchi, kapital sig‘imi yuqori va texnologik jihatdan murakkab jarayonlardir. Bunday loyihalarni moliyalashtirishda va amalga oshirishda investorlar duch keladigan eng katta to‘siqlardan biri bu — huquqiy xatarlar (legal risks) hisoblanadi. O‘zbekiston ham bu global tendensiyadan chetda qolmay, "yashil" energetika sektorini rivojlantirish bo'yicha ulkan maqsadlarni belgilab olgan va shu yo'nalishda jadal islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatda hozirda umumiy qiymati 13 milliard dollarga teng zamonaviy quyosh shamol va gidroenergetika loyihalari qamrab olinib, sohaga 2,1 mliard dollarlik to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Bu esa mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgani natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyat hisoblanadi. Bugungi kunda Buxoro, Jizzax va Samarqand viloyatlarida umumiy quvvati 1, 6 gigavatt bo‘lgan to‘qqizta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi ishga tushirilgan bo‘lsa, Andijon va Toshkent viloyatlarida umumiy quvvati 183 megavattga teng oltita gidroelektr stansiyasi ishga tushirildi. Shu bilan birga, ijtimoiy obyektlar, korxonalar va turar joy binolariga 457 megavatt quvvatli quyosh panellari o‘rnatilgan bo‘lib, bu choralar 5 milliard kilovatt-soat toza elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini berdi va 1,5 milliard kub metr tabiiy gazni tejashga xizmat qildi. Ushbu keng ko‘lamli loyihalar mamlakatning qayta tiklanuvchi energiya salohiyatini (joriy elektr energiyasiga bo‘lgan talabdan 10-12 barobar yuqori) to‘liq ishga solishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Biroq, bu ulkan investitsiyalar va keng miqyosli loyihalarning muvaffaqiyati nafaqat texnologik imkoniyatlar va moliyaviy barqarorlikka, balki huquqiy muhitning shaffofligi, barqarorligi va bashorat qilinuvchanligiga ham bog'liq. Yashil energetika loyihalaridagi huquqiy xatarlarning oqilona boshqarilishi loyiha xatarini kamaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va loyihalarning uzoq muddatli faoliyatini ta'minlash uchun nihoyatda muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston kontekstini hisobga olgan holda, yashil energetika loyihalarida yuzaga keladigan huquqiy xatarlarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini taklif etishdan iborat.

Asosiy qism: Yashil energetika sohasidagi huquqiy xatarlar va ularni boshqarish masalasi global miqyosda ko'plab tadqiqotlar va munozaralarga sabab bo'lgan. Energiya xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi ilmiy doiralarda keng o'rganilmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik bazasi, tartibga solish mexanizmlari va moliyaviy rag'batlantirish choralari xalqaro miqyosda huquqiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Ko'plab mamlakatlar, jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh va Xitoy o'zlarining milliy sharoitlariga moslashgan huquqiy doiralar yaratishda katta tajriba toplaganlar. Bu tajribalar, asosan, elektr energiyasini sotib olish shartnomalari (PPA), tarif siyosati, litsenziyalash tartiblari va atrof-muhitni muhofaza qilish standartlari atrofida shakllangan.

O'zbekiston misolida esa, energiya sohasidagi qonunchilik va tartibga solish mexanizmlari sezilarli darajada rivojlanish bosqichida. 2024 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasi qarorlari orqali energiya iste'moli normalaridan oshgan biznes subyektlariga yuqori koeffitsiyentlar qo'llash chegarasi oshirilishi, fuqarolar va kompaniyalar uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalarni mexanizmlarining kengaytirilishi kabi islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, "yashil" kreditlarning foiz stavkasi cheklavlari bekor qilinishi, kichik va mikro GESlar, biogaz generatorlari, issiqlik nasoslar, qurilish izolyatsiya materiallari va energiya tejaydigan maishiy gaz qozonlari kabi uskunalarni uchun kreditlar ro'yxatining kengaytirilishi, shuningdek, quyosh panellarini sotib olish uchun foizsiz muddatli to'lov muddatlarining yaxshilanishi va quyvat chegarasining 5 kVt dan 20 kVt gacha oshirilishi kabi o'zgarishlar tartibga soluvchi muhitning dinamikligini ko'rsatadi. Bu esa bir tomondan, investorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochsa, ikkinchi tomondan, tez-tez o'zgaruvchan qonunchilik muhitida huquqiy barqarorlikni taminlash zaruriyatini ham keltirib chiqaradi.

Yashil energetika loyihalaridagi huquqiy xatarlar bir necha asosiy toifalarga bo'linadi:

1. Me'yoriy-huquqiy xatarlar: Bularga qonunchilikning o'zgaruvchanligi, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarining murakkabligi, tarif siyosatining o'zgarishi, gridga ulanish

qoidalar va texnik standartlarga rioya qilish masalalari kiradi. O'zbekistonning lex.uz kabi qonunchilik ma'lumotlar bazalaridan olinadigan ma'lumotlar tartibga solish doirasining doimiy ravishda takomillashib borayotganini ko'rsatadi. Bu bir tomondan, sohaning rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, investorlar uchun noaniqlik manbai bo'lishi mumkin.

2. Shartnomaviy xatarlar: Energiya sotib olish shartnomalari (PPA), muhandislik, xarid va qurilish (EPC) shartnomalari, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish (O&M) shartnomalarining shartlari va bajarilishi bilan bog'liq xatarlar. Bunga shartnomani bekor qilish shartlari, fors-major holatlari, to'lov xavfsizligi va nizolarni hal qilish mexanizmlari kiradi.

3. Yer va atrof-muhit xatarlari: Loyiha uchun yer uchastkalarini olish, atrof muhitga tasirni baholash (OVOS), biologik xilma-xillikni saqlash, suv resurslaridan foydalanish va chiqindilarni boshqarish bilan bog'liq huquqiy masalalar. Katta hajmdagi loyihalar uchun yer olish jarayonlari ko'pincha murakkab va jamoatchilik noroziligiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Xalqaro va moliyaviy xatarlar: Xoriy investitsiyalarning himoyasi, xalqaro arbitraj, valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi, moliyalashtirish shartnomalari va davlat kafolatlari bilan bog'liq xatarlar. O'zbekistongajalb qilingan 2,1 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xoriy investitsiyalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro investorlar uchun bu xatarlarni samarali boshqarish juda muhim.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil energetika loyihalarida huquqiy xatarlar ko'p qirali bo'lib, ularni samarali boshqarish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. O'zbekistonning huquqiy islohotlari bu boradagi harakatlarning muhim tarkibiy qismi bolib, investorlar uchun yanada qulay muhit yaratishga qaratilgan.

Yashil energetika loyihalarining muvaffaqiyati nafaqat texnik-iqtisodiy asoslarga, balki huquqiy muhitning barqarorligi va bashorat qilinuvchanligiga ham bog'liq. Ushbu bo'limda yashil energetika loyihalarida yuzaga keladigan asosiy huquqiy xatarlar har bir toifa bo'yicha chuqur tahlil qilinadi.

Me'yoriy-huquqiy xatarlar: Yashil energetika sektori ko'pincha tez o'zgaruvchan va rivojlanayotgan me'yoriy doirada faoliyat yuritadi. Bu qonunchilikning, tartibga soluvchi siyosatning yoki boshqaruv amaliyotining kutilmagan o'zgarishlari bilan bog'liq xatarlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda energiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Masalan, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi choralar joriy etilmoqda. Bunday o'zgarishlar, bir tomondan, sohaning rivojlanishi uchun muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan, loyiha ishtirokchilari uchun noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan,

litsenziyalash va ruxsat berish tartib-qoidalarining murakkabligi va tez-tez o'zgarib turishi, tarif siyosatidagi o'zgarishlar (masalan, feed-in tariflari yoki boshqa rag'batlantirish mexanizmlarining bekor qilinishi), elektr tarmog'iga ulanish qoidalar va standartlaridagi yangiliklar investorlar uchun jiddiy xatarlarni yuzaga keltiradi. Loyihalar uzoq muddatli bo'lgani sababli, 20-25 yil davomida barqaror me'yoriy muhitning kafolatlanmasligi loyihaning rentabelligi va sarmoyaning qaytishiga salbiy ta'sir korsatishi mumkin. Shuningdek, mahalliy hukumat organlarining amaliyotlaridagi izchillikning yo'qligi ham qo'shimcha xatar manbai bo'lishi mumkin.

Shartnomaviy xatarlar: Har qanday yirik loyihada, ayniqsa, yashil energetika sohasida shartnomalar loyihaning huquqiy asosini tashkil etadi. Bu yerda elektr energiyasini sotib olish shartnomalari (PPA), muhandislik, xarid va qurilish (PC) shartnomalari, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish (O&M) shartnomalari kabi turli turdagi shartnomalar muhimdir. Shartnomaviy xatarlar loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi majburiyatlarning aniq belgilab berilmaganligi, shartnoma shartlarining bajarilmasligi, fors-major holatlarining notog'ri talqin qilinishi, to'lovlar kafolatining yo'qligi yoki shartnomani bekor qilish shartlarining noaniqligi bilan bog'liq bolishi mumkin. O'zbekistonda yirik xorjiy investitsiyalar jalb qilinayotgan bir sharoitda, xalqaro standartlarga mos keladigan, ammo mahalliy huquqiy tizimga integratsiyalangan mustahkam shartnoma tuzish juda muhim. Nizolarni hal qilish mexanizmlarining (masalan, arbitraj kelishuvlari) samaradorligi ham shartnomaviy xatarlarni yumshatishda asosiy omil hisoblanadi.

Yer va atrof-muhit xatarlari: Yashil energetika loyihalari, ayniqsa, quyosh va shamol elektr stansiyalari, katta yer maydonlarini talab qiladi. Shu sababli, yer uchastkalarini olish, yer egasi yoki undan foydalanuvchilar bilan kelishuvlarga erishish, kompensatsiya masalalari jiddiy huquqiy xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. Loyihalarning atrof-muhitga ta'sirini baholash (OVOS) jarayonlari, ulamning natijalarini qonunchilik talablariga muvofiqlashtirish, shuningdek, biologik xilma-xilikni himoya qilish va suv resurslaridan foydalanish bo'yicha ruxsatnomalar olish ham muhim huquqiy qiyinchiliklardir. O'zbekistonda bunday katta loyihalar amalga oshirilganda, masalan, 1,6 gigavatt quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalari kabi yer masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Jamiyat bilan aloqalar va ijtimoiy tasirni baholash ham loyihaning huquqiy barqarorligini taminlashda muhim rol o'ynaydi, chunki mahalliy aholining noroziligi loyiha kechikishlariga yoki hatto bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Xalqaro xatarlar: O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) yashil energetika loyihalarini moliyalashtirishda asosiy rol oynaydi. Shu sababli, xalqaro huquqiy xatarlar, jumladan, investitsiyalarni himoya qilish to'g'risidagi xalqaro shartnomalar, ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (BITs) va xalqaro arbitraj

mexanizmlari bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Investorlar uchun valyuta konvertatsiyasi, repatriatsiya kafolatlari, siyosiy xavf-xatarlardan sug'urtalash imkoniyatlari ham huquqiy jihatdan muhimdir. Mahalliy qonunchilikning xalqaro huquq normalariga muvofiqligi, shuningdek, xorijiy sud qarorlari yok arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmlarining mavjudligi xalqaro investorlarning ishonchini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Moliyaviy xatarlar: Moliyalashtirishning huquqiy jihatlar ham muhim xatar manbai hisoblanadi. Loyiha moliyalashtirish tuzilmalari, garov shartnomalari, kredit shartnomalari va davlat kafolatlari bilan bog'liq huquqiy xatarlar moliyalashtirishning barqarorligini belgilaydi. Ozbekistonda "yashil" kreditlar bo'yicha foiz stavkalari cheklovlari bekor qilinishi kabi chora-tadbirlar moliyaviy bozorning yanada moslashuvchanligini ko'rsatsa-da, kredit shartnomalarining shartlari, garovning ijr etilishi va umumiy moliyaviy barqarorlikni taminlashda huquqiy doiraning aniqligi muhimdir. Moliyaviy hujjatlarning murakkabligi va ularning mahalliy qonunchilikka mos kelmasligi loyiha moliyalashtirilishini kechiktirishi yoki qiynlashtirishi mumkin.

Yashil energetika loyihalarida huquqiy xatarlarni boshqarish boyicha eng yaxshi amaliyotlar va tavsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Qonunchilik barqarorligini ta'minlash: Hukumatlar yashil energetika loyihalariga oid qonunchilikni imkon qadar barqaror va bashorat qilinadigan qilishlari kerak. Yangi islohotlar o'tish davri qoidalarini va investorlar uchun himoya mexanizmlarini o'z ichiga olishi lozim. lex.uz kabi platformalarning rolini yanada kuchaytirish, qonunchilik loyihalarining jamoatchilik muhokamasiga kengroq ochilishi shaffoflikni oshiradi.

2. Standartlashtirilgan shartnomalar: Loyiha hujatlari, ayniqsa PPA kabi muhim shartnomalar uchun standartlashtirilgan, ammo moslashuvchan shablonlarni ishlab chiqish va joriy etish loyiha muzokaralarini soddalashtiradi va huquqiy noaniqliklarni kamaytiradi.

3. Shoshilinch choralar rejasi: Qonunchilik yoki siyosatda kutilmagan ozgarishlar yuzaga kelganda, loyihalar uchun shoshilinch choralar rejasi (contingency plan) ishlab chiqish zarur. Bu huquqiy maslahatchilar bilan doimiy hamkorlikni o'z ichiga oladi.

4. Yer ajratish jarayonlarini shaffoflashtirish: Loyihalar uchun yer ajratish jarayonlarini shaffof va adolaltli qilish, kompensatsiya mexanizmlarini aniq belgilash orqali yer bilan bog'liq nizolarning oldini olish mumkin.

5. Xalqaro standartlarni qo'llash: Xorijiy investorlarni jalb qilish uchun loyiha hujatlari va huquqiy boshqaruv jarayonlarida xalqaro ilg'or tajribalar va standartlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan, O'zbekistonning yashil energetika sektoridagi ulkan salohiyatini hisobga olgan holda, huquqiy infratuzilmani yanada mustahkamlash zarur. Bu

nafaqat qonunchilikni takomillashtirish, balki sud tizimining mustaqilligi va nizolarni hal qilish mexanizmlarining samaradorligini oshirishni ham o'z ichiga oladi. Yashil energetika sohasidagi mahalliy huquqshunoslarning malakasini oshirish, xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish kelajakda huquqiy xatarlarni boshqarishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni 2030 yilga borib 25 GVt ga yetkazish strategiyasi, ushbu chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan mustahkam huquqiy asosni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot yashil energetika loyihalarida huquqiy xatarlarni va ularni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, sifatli, deskriptiv va konseptual tahlilga asoslanadi. Tadqiqotda huquqiy, iqtisodiy va texnologik adabiyotlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va siyosat hujjatlari asosida tushunchaviy doira shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz) platformasidan keng foydalaniladi. Ushbu platforma milliy va Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitutsiyalari, kodekslari, qonunlari, farmonlari, qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalariga va turli normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, xalqaro shartnomalar va sud amalyoti yozuvlariga keng qamrovli kirish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar bazasi orqali hujat raqami, nomi, matn tarkibi, magomi (faol, bekor qilingan, kuchga kirmagan) va sanalar bo'yicha batafsil qidiruvlar o'tkaziladi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Nazariy asosni shakllantirish: Yashil energetika, huquqiy xatarlar va risk menejmentining umumiy tushunchalari, nazariyalari va modellarini o'rganish.
2. Huquqiy xatarlarni tasniflash: Yashil energetika loyihalariga xos bolgan huquqiy xatarlarning asosiy turlarini aniqlash va ularni yuqorida keltirilgan toifalarga ajratish.
3. Chuqur tahlil: Har bir xatar turi bo'yicha O'zbekiston qonunchilik kontekstida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'ziga xos holatlarni tahlil qilish. Bu yerda O'zbekistonda joriy etilayotgan islohotlar va qonunchilikdagi o'zgarishlar, jumladan, energiya sohasidagi so'nggi o'zgarishlar, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar mexanizmlari hamda Intersektoral energiya tejash jamg'armasi platformasi kabi yangi tashabbuslar e'tiborga olinadi.
4. Boshqaruv mexanizmlarini aniqlash: Xalqaro ilg'or tajribalar va O'zbekiston sharoitlariga mos keladigan huquqiy xatarlarni boshqarish strategiyalari va amaliyotlarini aniqlash va ularni tushunchaviy asosda taqdim etish.

5. Tavsiyalar va kelajak istiqbollari: Tadqiqot natijalari asosida loyihalar ishtirokchilari, siyosat ishlab chiquvchilar va investorlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chigish, shuningdek, kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlarini belgilash,

Ushbu metodologiya huquqiy xatarlarning kompleks tabiatini tushunishga va ularni samarali boshqarish bo'yicha aniq, amaliy yechimlarni taklif qilishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonning yashil energetika sektoridagi ulkan salohiyatini ro'yobga chiqarishda huquqiy muhitning muhim rolini takidlash va bu sohada gi barqaror rivojlanishga hissa qo'shishdir.

Xulosa

Yashil energetika loyihalari energiya xavfsizligi, iqlim o'zgarishi va iqtisodiy rivojlanish kabi global muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning bu sohada gi ulkan salohiyati va investitsiyalarni faol jalb etishi mamlakat uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu imkoniyatlarni tolig royobga chiqarish va loyihalarning barqarorligini ta'minlash uchun huquqiy xatarlarni samarali boshqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolada me'yoriy huquqiy, shartnomaviy, yer va atrof-muhit, xalqaro hamda moliyaviy xatarlar kabi asosiy huquqiy xatarlar turlari tahlil qilindi. Qonunchilikdagi o'zgaruvchanlik, yer ajratishdagi murakkabliklar, shartnomaviy nizolar va xalqaro investitsiyalar bilan bog'liq masalalar ushbu xatarlarning asosiy manbalari ekanligi ko'rsatildi.

Xuquqiy xatarlarni boshqarish uchun chuqur huquqiy ekspertiza, mustahkam shartnomaviy asoslar, qonunchilikka rioya qilish tizimlari, nizolarni samarali hal qilish mexanizmlari va hukumat bilan konstruktiv muloqot zarur. O'zbekistonning yashil energetika sohasidagi islohotlari, jumladan, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar mexanizmlarining joriy etilishi, investorlar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda huquqiy barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifa bolib qoladi. Kelajakda qonunchilikni yanada barqaror qilish, shartnomaviy standartlarni joriy etish, yer ajratish jarayonlarining shaffofligini oshirish va xalqaro arbitraj mexanizmlarini mustahkamlash orqali O'zbekiston yashil energetika loyihalari uchun yanada jozibador va xavfsiz investitsiya manzili bo'lishi mumkin. Bu esa mamlakatning energiya mustagilligini oshirishga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O'zbekistonda yashil energetika loyihalarining joriy holati va istiqbollari <https://president.uz/uz/news/view/7978>

[2] Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha yangi choralar to'g'risida qaror - <https://lex.uz/docs/XXXXXXm>

[3] O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik malumotlari mill bazasi -<https://lex.uz/>

[4] Renewable Energy Law: A Guide for Practitioners- <https://www.irena.org/publications/2020/Nov/Renewable-Energy-Law>

[5] Enhancing Green Energy Investment in Central Asia - <https://www.worldbank.org/en/topic/energy/publication/central-asia-green-energyinvestment>

[6] Legal Risks in Renewable Energy Project Finance: A Comparative Analysis-
<https://www.energylawjournal.org/>

[7] Legal and Regulatory Framework for Renewables in Uzbekistan- https://www.ebrd.com/downloads/sector/energy/Uzbekistan_Renewables_Legal_Framework.pdf

[8] ICC Guide to Energy and Project Finance Disputes - <https://iccwbo.org/publication/icc-guide-to-energy-and-project-finance-disputes/>

[9] Uzbekistan's Path to Green Energy Transition: Policy Brief-<https://www.undp.org/uzbekistan/publications/uzbekistan-green-energy-transition>

[10] O'zbekiston Respublikasining "Qaytatiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni - <https://lex.uz/docs/-4366912>